

VOLUME II | ISSUE 3 | MAY-JUNE

2024

SPECIAL ISSUE

Journal of Pedagogical and Psychological Studies

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ISSN: 2181-4066

Available online at www.imfaktor.com



ISSN: 2181-4066

DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

II-ЖИЛД, 3 СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ
ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-II, НОМЕР 3

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-II, ISSUE 3

TOSHKENT - 2024

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

№ 3 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4066-2024-3>

Бош муҳаррир:

Нишонова З.

– психология фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Давлатов Ойбек.

– педагогика ф.б.ф.д. (PhD)

Таҳририят аъзолари:

1. Юсупова Хабиба Ирискуловна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
2. Олимов Лазиз Ярашович – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
3. Элов Зиёдулло Сатторович – психология фанлари доктори, доцент
4. Ганжиев Феруз Фурқатович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
5. Мусаева Мухаббат Эшбаевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD), доцент
6. Умаров Баҳром Норбоевич – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
7. Орипова Раънохон Иброхимовна – педагогика фанлари номзоди, доцент
8. Ўринова Феруза Ўлжаевна – педагогика фанлари номзоди, доцент
9. Ниёзова Лутфия Худайбергановна – дефектолог - эксперт
10. Салиева Дилором Абдуллаевна – психология фанлари номзоди
11. Останов Шухрат Шарифович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
12. Рустамов Шавкат Шухратович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
13. Халлокова Максудахон Эргашевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
14. Исмаилова Раъно Нураевна – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
15. Саримова Дилдора Соаталиевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD), доцент
16. Улуғова Шахлола Муслиддиновна – психология фанлари номзоди, доцент
17. Махмудова Зулфия Мехмоновна – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
18. Худайберганов Шухрат Шавкат ўғли – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
19. Исматова Дилафруз Тўймуратовна – психология ф.б.ф.д. (PhD)
20. Улуғова Шахлола Муслиддиновна – психология фанлари номзоди, доцент
21. Махмудова Зулфия Мехмоновна – психология ф.б.ф.д., (PhD)
22. Ўринова Озодахон Ўлжаевна – педагогика ф.б.ф.д., (PhD)
23. Рўзиев Умар Музафарович – психология ф.б.ф.д., (PhD)
24. Останов Жасур Шопиржонович – психология ф.б.ф.д., (PhD)
25. Лола Камоловна Илиева (Бахриддинова) – педагогика фанлари номзоди, доцент
26. Муродова Дурдонахон Райимжон қизи – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)

“Педагогик ва психологик тадқиқотлар” журнали 6 та халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун UIF 2023 = 8.2 “импакт-фактор” кўрсаткичига эга. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар хорижий мақолалар сифатида тан олинади.

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор
24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, **E-mail:** tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2024 йил.

© Мўаллифлар жамоаси, 2024 йил.

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

OLAMOVA Mamura Umarovna

Farg‘ona davlat universiteti

tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11491471>

МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИГА МУЛТЕМЕДИАЛИ ДАСТУРЛАРНИ ТАДБИҚ ЭТИШ ОРҚАЛИ ТАРБИЯЧИЛАРНИНГ АХБОРОТ КОНСРУКТИВ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ОШИРИШ

АННОТАТСИЯ

Мақоллада мактабгача та’лим ташкилотларига мултемедиа о’қитиш усулларини тadbiq etish орқали та’лим jarayonini qulay va qiziqarli tashkil etishning didaktik va amaliy xususiyatlari yoritib berilgan. Bundan tashqari, maktabgacha ta’lim tashkilotlariga multimedial dasturlarni tadbqiq etish орқали tarbiyachilarning axborot konsruktiv kompetentligini oshirish bo’yicha ham tushunchalar berilibgina qolmay, maktabgacha ta’lim tashkilotlariga multimedial dasturlarni tadbqiq etish орқали tarbiyachilarning axborot konsruktiv kompetentligini boyitish qanchalik muhim ekani haqida so’z boradi desak mubolag’a bo’lmaydi.

Kalit so’zlar: multimedia, ta’lim, axborot, dastur, disk, texnologiya, kompyuter, mahsulot, elektron darslik, masofali ta’lim, maktabgacha ta’lim, multimedial o’qitish, amaliy xususiyatlar, konsruktiv kompetentlik.

ПОВЫШЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННО-КОНСТРУКТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ВОСПИТАТЕЛЕЙ ЗА СЧЕТ ВНЕДРЕНИЯ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ ПРОГРАММ В ДОШКОЛЬНЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ОРГАНИЗАЦИИ

АННОТАЦИЯ

В статье освещены дидактические и практические особенности комфортной и интересной организации образовательного процесса путем внедрения мультимедийных методов обучения в дошкольные образовательные организации. Кроме того, не будет преувеличением сказать о том, насколько важно обогащение информационно-конструктивной компетентности воспитателей посредством внедрения мультимедийных программ в дошкольные образовательные организации, а также о том, насколько важно обогащение информационно-конструктивной компетентности воспитателей посредством внедрения мультимедийных программ в дошкольные образовательные организации.

Ключевые слова: мультимедиа, образование, информация, программа, диск, технология, компьютер, продукт, электронный учебник, дистанционное обучение, дошкольное образование, мультимедийное обучение, практические характеристики, конструктивная компетентность.

INCREASE THE INFORMATION CONSTRUCTIVE COMPETENCE OF EDUCATORS BY INTRODUCING MULTEMEDIAL PROGRAMS TO PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

ANNOTATION

The article highlighted the didactic and practical features of a convenient and interesting organization of the educational process by introducing methods of teaching multimedial to preschool educational organizations. In addition, it is not an exaggeration to say how important it is to enrich the informational constructive competence of educators by introducing multi-disciplinary programs into preschool educational organizations, but to increase the informational constructive competence of educators by introducing multi-disciplinary programs into preschool educational organizations.

Keywords: multimedia, education, information, program, disk, technology, computer, product, e-textbook, distance education, preschool education, multi-medical teaching, practical features, constructive competence.

Kirish

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarning ta'limiy faoliyatlarida multimedia texnologiyasidan foydalanishni amalga oshirish uchun, tarbiyachilar multimedia to'g'risida ma'lum bir darajada elementar bilimlarga ega bo'lishlari kerak. Ilmiy va o'quv adabiyotlarda, maqolalarda multimedia to'g'risida turli xil qarashlar, fikrlar va tushunchalar berilgan bo'lib, tarbiyachi-pedagoglar ularning qaysi biridan foydalanishni bilmasdan qiynalmoqdalar.

Shuning uchun, quyida multimedia asoslarini (multimedia atamasi, ta'riflari, mazmuni, shakllanishi, vositalari va multimedia texnologiyasi bo'yicha ba'zi-bir ma'lumotlarni) sodda va elementar shaklda ba'en qilamiz. Tarbiyachilarga multimedia to'g'risidagi ma'lumotlar tushunarli bo'lishi uchun analogiya uslubidan foydalanib, ba'zi bir taqqoslashlarni ham keltiramiz.

Multimedia atamasi (multum - medium) kabi ikkita so'z yig'indisidan (yoki ingl. Multi-media) lardan tashkil topgan bo'lib, "multi"-ko'p, "media"-muhit ma'nosini anglatadi [1].

Ushbu atama ilmiy va o'quv adabiyotlarda "Ko'p vositalilik", "Multimedia muhiti", "Ko'p qatlamli muhit", "Multimedia - bittadan ko'p bo'lgan mediadir", "Mahsulot tashuvchi vosita", "Ma'lumot tashuvchi vosita" kabi talqin qilinib kelinmoqda, hatto ayrim adabiyotlarda "Hozirgacha multimediani aniq ta'rifi mavjud emasligi" ham e'tirof etilgan.

Tarbiyachilarga mo'ljallangan adabiyotlar va mashg'ulotlarda foydalanish uchun atamaning tarjimasiga yaqin bo'lgan quyidagi ta'rif "ko'p elementli (tarkibli) muhit" atamasi mos keladi.

Adabiyotlar tahlili

«Multimedia» atamasining adabiyotlarda yoritilgan bir nechta ta'rifini keltiramiz: "Multimedia-deganda turli shakldagi ma'lumotlarni qayta ishlovchi vositalar majmuasi tushuniladi", [2] "Multimedia – bir vaqtning o'zida turli ko'rinishdagi axborotlardan: matn, grafika, tovush va boshqalardan foydalanishni ko'zda tutgan foydalanuvchi interfeysining kontseptsiyasi", [3] "Multimedia – bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida axborotning an'anaviy va original turlari asosida o'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko'rinishidir", [4] "Multimedia – gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasidir", [5] "multimedia – bu maxsus texnologiya bo'lib, dasturiy va texnik moddiy ta'minot asosida kompyuterda bir vaqtning o'zida matnli, tasviriy axborotni tovushli va harakatli holda (hattoki videofilm holatida) ifodalash imkoniyatidir", [6] "Multimedia – tasvirli ma'lumotlar bilan ishlashga qodir bo'lgan vosita hisoblanadi", [7] "Odatda multimedia deganda turli shakldagi ma'lumotlarni qayta ishlovchi vositalar majmuasi tushuniladi", [8] "Multimedia – kompyuter tizimida matn, tovush, videotasvirni va turli animatsiyalarni mujassamlashtirish imkonini beruvchi zamonaviy axborotlar texnologiyasidir" [9].

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, MTT tarbiyachilari o‘zlarining ish faoliyatlarida multimedia tushunchasining qaysi bir ta‘rifidan foydalanishga qiynaladilar. Multimedia tushunchasining ta‘rifiga aniqlik kiritish uchun dastlab uning mazmunini ko‘rib o‘tamiz.

Muhokamalar

Multimedianing mazmuni tasavvur etish va tushunish uchun, birinchi navbatda quyidagi ikkita taqqoslashni keltirish maqsadga muvofiq:

Birinchi taqqoslash. Ma‘lumki, dehqonchilik mahsulotlari temir yo‘l transporti vagonlariga ortilib markaziy shaharlarga jo‘natiladi. Buning uchun, birinchi galda mahsulotlar, masalan, kartoshka, piyoz, sabzi, karam, turp, sholg‘om, qovun, tarvuz va boshqalarga ishlov berilib (saralanib va tozalanib) omborxonalarda to‘planadi, so‘ngra vagonlarga ortiladi.

A) mahsulotni vagonga ortish ikki usulda amalga oshirilishi mumkin: vagonga faqat bir turdagi mahsulot, masalan, faqat kartoshka ortilishi mumkin; vagonga bir necha turdagi mahsulot – kartoshka, piyoz, karam, sabzi, turp ortilishi mumkin.

Shunday qilib, birinchi holda bitta vagonda bir turdagi mahsulot, ikkinchi holda esa bitta vagonda besh turdagi mahsulot jo‘natiladi.

B) iste‘molchi ishlov berilgan va omborxonada to‘plangan mahsulotni shu erning o‘zida yoki mo‘ljalga etib kelgan joyda iste‘mol qilishi mumkin.

Demak, birinchi holda vagondagi mahsulotni bir tarkibli mahsulot, ikkinchi holda esa ko‘p tarkibli mahsulotlar majmuasi deb qarashimiz mumkin.

Ikkinchi taqqoslash. MTT tarbiyachisi boshqa shahardagi hamkasbiga ish yuzasidan xat yuborishi bilan bog‘liq hol. Xat yuborish uchun dastlab xat matnini, fotosuratini, ishga doir bitta jadval va bitta sxema tayyorlab ularga ishlov beradi. Xatni yuborish esa ikki usulda amalga oshiriladi:

1. Bitta konvertida odatdagidek faqat bitta xatni o‘zini joylashtirib yuboradi. Bu bir turdagi mahsulot yuborishga o‘xshash bo‘ladi.

2. Bitta konvertida xat matnini, o‘zining fotosuratini, tayyorlagan jadval va sxemasini joylashtirib yuboradi. Bu bitta vagonda ko‘p turdagi mahsulot yuborishga o‘xshab, konvert ichida ma‘lumotlar majmuasini yuborgan hisoblanadi.

Yuqoridagi taqqoslashlardagi misollarni axborotlar texnologiyasiga tatbiq etamiz.

Ma‘lumki, multimediali axborotlar tizimiga matn, jadvallar, grafika, nutq, sxema, musiqa va boshqalar kiradi. Ushbu axborotlarni ham foydalanuvchilarga yuqoridagi tartibda ikki usulda uzatish mumkin.

1. Har bir axborotni, masalan, matnni ma‘lum bir masofadagi foydalanuvchiga yoki shu joyning o‘zidagi foydalanuvchiga bitta “paketga” bir o‘zini joylab uzatish mumkin .

2. Axborotning bir nechta turlarini – matn, grafika, sxema, tasvir, musiqa va boshqalarni kompyuter xotirasida saqlab, ishlov berib va barchasini bitta “paketga” mujassamlashtirilib ma‘lum bir masofadagi foydalanuvchiga yoki shu joyning o‘zidagi foydalanuvchiga uzatish mumkin .

Natijalar

Shunday qilib, multimedianing mazmunidan kelib chiqqan holda multimedia tushunchasining pedagoglar uchun tushunarli bo‘lgan quyidagi ta‘rifini keltirish mumkin: «Multimedia - bir nechta axborot turlarini kompyuterda ishlov berish natijasida hosil qilingan va bitta “paketga” mujassamlashtirilgan axborot jamlamasidir» [10].

Multimedianing tashkil etuvchilaridan (element) biri – axborotlarga animatsiya samarasini berishdir. Bu multiplikatsion filmlarda rassomning chizgan qator chizmalari va rasmlarini tez (bir daqiqada 24 kadr tezlikda) namoyish ettirilishi asosida sodir bo‘ladi. Hozirgi kunda esa, multiplikatsion filmlar kompyuterda 3D. Flash dasturi asosida yaratilmoqda. Multimediyada esa, maxsus dasturlar (Power Point, Macromedia Flash va hokazolar) orqali amalga oshiriladi.

1986 yilda Amida kompyuterida birinchi marta maxsus rolikda tovush (musiqa) bilan birgalikdagi animatsiya samarasi namoyish qilinib, multimedianing shakllanishi nihoyasiga yetkazildi va bu yig‘ilishda to‘laqonli multimedia texnologiyasi yaratilgani e‘tirof etildi. Shunday qilib, 1986 yil rasmiy ravishda multimediani yaratilgan (“tug‘ilgan”) yili hisoblanadi.

Multimedia vositalariga multimedia mahsulotini yaratishda foydalanadigan uskunalar (yoki jihozlar), dasturlar va amalda foydalanishga mo'ljallangan materiallar kiradi. Tarbiyachilar multimedia vositalari oson tasavvur etishlari uchun, uskunaviy, dasturiy va amaliy vositalar kabi uch turga bo'lib tushuntirish qulayroq bo'ladi:

1. Uskunaviy vositalari qatoriga audio plata, video plata, kompakt disk (CD ROM, DVD, DVD ROM tashqi uskuna) lar, videoqamrash platalari, video kiritish va chiqarish, tovush kiritish va chiqarish qurilmalari va boshqalar kiradi.

2. Dasturiy vositalariga Power Point, Macromedia Flash, Adobe Premiere, Media Player, CD Player va boshqa dasturlarini kiritish mumkin.

Shuningdek, mahsulot tayyorlashda Corel Draw, Paint Brush grafik muharrirlardan ham foydalaniladi.

3. Amaliy vositalariga turli xil jadvallar, ma'lumotnomalar, elektron darsliklar, taqdimotlar, slyaydlar, kompyuter o'yinlari va boshqalar kiradi. Bulardan ta'lim jarayonida, moliya-iqtisod tizimida, ilmiy-tadqiqot ishlarida va boshqalarda foydalaniladi.

Multimedia texnologiyasi dastlab ma'lum bir sohadagi texnologik jarayon mazmunini ko'rib chiqaylik. Texnologik jarayon deganda, biron xom ashyo, material yoki axborotni ma'lum bir asbob-uskuna, vosita, qurilmalardan foydalanib, ularga ishlov berish, xossalarini o'zgartirish va qayta ishlash natijasida yangi sifatli mahsulot olish jarayoni tushuniladi.

Multimediali kompyuter texnologiyasidan ta'lim sohasida yangi pedagogik texnologiya sifatida foydalanish mumkin. Ushbu texnologiya quyidagi afzalliklarga ega: dars va mashg'ulotlarning samaradorligi va beriladigan materiallarni hajmi oshiradi, o'rganilgan materiallar tarbiyalanuvchilarning xotiralarida uzoq vaqt saqlanadi.

Multimedia texnologiyasidan foydalanish borasida, ko'pgina ta'lim vositalari – o'quv elektron darsliklar, qo'llanmalar, ishlanmalar, taqdimotlar ishlab chiqilgan. Masalan, o'rta-maxsus, kasb-hunar kollejlari uchun "Informatika" elektron darsligi, "O'zbekiston-2000", "Amir Temur" ilovalari shular jumlasidandir.

Kezi kelganda shuni ta'kidlash kerakki, multimediali elektron darsliklar, odatdagi an'anaviy darsliklarga nisbatan qator afzalliklarga ega. Ya'ni,

Birinchidan, odatdagi darsliklarda biron mavzuga tegishli materiallar matni va statik ko'rinishdagi bitta rasm beriladi;

Ikkinchidan, multimediali elektron darsliklarda esa, shu mavzuga tegishli material matni va uni sharhlab boruvchi suhandonning ovozi, mavzuga tegishli animatsiya berilgan bir nechta tasviriy ma'lumotlar, o'tgan davrga tegishli kichik kino lavha va musiqa qo'shib beriladi. Masalan, A.I.Ashirova o'zining texnika oliy o'quv yurtlari uchun yaratgan elektron darsligida 40% dan ortiq multimedia materiallaridan foydalangan. Shuningdek, N.Toyloqov o'zining elektron darsligida multimedia materiallariga ham e'tibor qaratgan [11].

Xulosalar

Multimedia texnologiyasidan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hozirgi davrda unumli foydalanib kelinmoqda. Shu bilan birga MTTlarda ham multimedia texnologiyasidan foydalanishning keng imkoniyatlari mavjud. Jumladan, MTT tarbiyalanuvchilariga harflarni o'rgatishda elementar matematik tushunchalar bilan tanishtirishda, ijobiy va salbiy ekologik ta'sirlarni bayon qilishda, ta'limiy va rivojlantiruvchi kompyuterli o'yinlarni amalga oshirishda foydalaniladi.

Masofali ta'lim o'qitishning zamonaviy shakllaridan biri sifatida ta'lim tizimining barcha sohalarida o'z o'rnini topmoqda. Jumladan, Internet tarmog'idagi o'quv materiallaridan keng foydalanilmoqda. Internetdan olinadigan materiallarning aksariyati multimediali taqdimot shaklida yaratilgan. Masalan, MTTlar uchun "Kimning uyi qayerda?", "Uy yasash" taqdimotlari va turli xil kompyuter o'yinlari shular jumlasidandir.

Shunday qilib, MTT tarbiyachilari multimedia to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'lganlarida, undan MTTlarning ta'lim-tarbiya jarayoniga foydalanishlari oson kechadi.

IQTIBOSLAR. ЧОШКИ. REFERENCES.

1. Xalq ta'limi sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi: www.multimedia.uz
2. Tobias Hauser, Marianne Pentenrieder, Christian Wenz. Workshop HTML 4. © 2001 Deutschland GmbH, Martin-Kollar-Straße 10–12, D-81829 München/Germany
3. Laura Lemay, Denise Tyler, deutsche Übersetzung: Marcus Linke. HTML in 21 Tagen. © 2000 Deutschland GmbH. Martin-Kollar-Straße 10–12, D-81829 München/Germany
4. Петюшкин А. В. П29 HTML. Экспресс-курс. - СПб.: БХВ-Петербург, 2003. - 256 с.: ил.
5. Полонская Е.Л. П52 Язык HTML. Самоучитель.: - М.: Издательский дом "Вильяме", 2003.- 320 с.: ил.
6. Матросов А. В., Сергеев А. О., Чаунин М. П. HTML 4.0. - СПб.: БХВ-Петербург, 2003. - 672 с.: ил.
7. Гончаров А. Г65 Самоучитель HTML. - СПб.: Питер, 2002. - 240 с.: ил.
8. Вильямсон Х. В46 Универсальный Dynamic HTML. Библиотека программиста. - СПб.: Питер, 2001. - 304 с.: ил.
9. А. Р. Марахимов, С. И. Рахмонкулов «Интернет ва ундан фойдаланиш асослари». Тошкент-2001.
10. «Та'лим samaradorligini oshirish yo'llari» mavzusidagi seminar trening materiallari. - Т.: 2002, 91-bet
11. Z.F.Sharopova «Ta'lim texnologiyalari» Toshkent, «Navro'z» nashriyoti, 2019 y, 72-bet

ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

II-ЖИЛД, 3 СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ
ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-II, НОМЕР 3

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-II, ISSUE 3

«Педагогик ва психологик тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz